

MILLATNING MA'NAVİYATINI SHAKLANTIRISH VA RIVOJLANТИRISHDA
OILANING MUSTAHKAMLIĞI

Turaboyeva Feruza Qushmat qizi

Farg'onan davlat universiteti

Annotatsiya: Oila bu- hayot abadiyligi va avlodlar davomiyligini ta'minlovchi qadryatlar beshigi, kelajak nasillari uchun betakror tarbiya qo'rg'onidir. Shu bois, oila xalqimizda qadim zamonalardan muqaddas sanalib kelingan va shunday bo'lib qoladi. Zero xalqning millatning kelajagi aynan oila bilan chambarchas bog'liq. Chunki har bir inson oilada tug'iladi va voyaga yetadi. Har bir bolaning kelajagida kim va qanday inson bo'lib kamol topishida oila muhim o'rinn tutadi. Demokratik huquqiy davlat vaadolatlik fuqorolik jamiyatda oila o'ziga xos ijtimoiy birlashma tashkil etadi. Oilaning bu hususiyati jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligi hamda ijtimoiy vazifalarida ifodalananadi.

Kalit so'z: oila, jamiyat, ma'naviyat, urf-odat.

Oila insoniyat yaralgan muhim va muqaddas ijtimoiy institut muassasidir. Darhaqiqat oila, ayniqsa o'zbek oilasi asrlar osha yosh avlodni tarbiyalashda, komil insonni voyaga yetkazishda muqaddas maskan bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Har bir insonda Vatan tushunchasi ilk bor tetapoya bo'lib o'sib kelayotgan yosh go'dakning ongi, ruhi va qalbiga kirib boradi, butun umri, hayotiy faoliyati davomida yana ham sayqalanib, mazmunan mujassamlashadi. Bu jarayon oiladagi sog'lom muhitda, ota-bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri, aka-uka, opa-singillarning mehr-oqibati orqali amalga oshib boradi.

Mamlakatimizda 1998 yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan «Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998 yilda amalga oshiriladigai choratadbirlar Davlat Dasturi» ning qabul qilinishi va amaliyatga tadbiq etilishi, Oliy Majlisning XI sessiyasida keng umumxalq muhokamasidan sung «Oila Kodeksi» ning bir ovozdan qabul qilinishi, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2 fevraldag'i 54-sonli qaroriga binoan Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Markazining tashkil etilganligi hukumatimiz tomonidan oila farovonligi, tinch-totuvligi va barqarorligini ta'minlashga bo'lgan e'tiboridan dalolatdir[1].

Bizga ma'lumki, oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi. O'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga egadir. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas balki, oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarini, qo'shnilarining omon esonligi to'g'risida hamxo'rlik qilishini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy kadriyat, inson qalbining gavharidir. Oila insonni xalol va pokiza bo'lishiga, ilm fan asoslarini egallashga, beva - bechoralarni qo'llab - quvatlashga, tabiatni e'zozlashga dav'at etadigan diniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga alohida e'tibor berishga dav'at etadi. Bu borada buyuk bobokalonlarimiz

Imom al-Buxoriy, Baxouddin Nakshband, Xoja Axmad Yassavyi, Imom at-Termeziyning insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi buyuk g'oyalari, xikmatlari katta o'rinn tutadi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev yoshlar tarbiyasi butun millat oldidagi ulkan mas'uliyatli vazifa ekanligini ta'kidlab: "Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularni ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas. Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!", deya takidlaydilar.

O'zbek oilalarida barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni benihoya katta. Bu yerda asrlar davomida shakllanib kelgan milliy an'analar, ota-onalar va bolalarning o'zaro hamkorligi va hurmati, qarindoshlarning bir-biriga yordam qo'lini cho'zilishi, oilaviy pokizalik talabalarini saqlanishi kabi urf-odatlar o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyati va axloqi uchun negizga aylanadi, maishiy-madaniy turmushning asosiy tushunchalari va qoidalari xalqimizning urf-odatlari, marosimlari va rasm-rusumlari mustahkam qo'rg'ondagidek saqlanib qoladi va avloddan avlodga yetkazib beriladi. Mustaqil respublikamizda Arastu aytgan oilaning baxt-saodat uyiga aylantirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Bugungi kunda sog'lom, aqli, bilimli, tashabbuskor, fidoiy yoshlarni oila muhitida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Ma'lumki, o'zbek oilasining va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos milliy xususiyatlari mavjud bo'lib, ota-bobolar va momolardan meros qolan ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar zamirida tarkib topgan oiladagi ma'naviy tarbiyaning asosiga suyaniladi.

Oilada bolalarning ruhan va jismonan sog'lom bo'lib o'sishiga oila muhitining ta'siri kattadir, chunki oilaviy muhit qanday bo'lsa, bolalar xuddi shu muhit ta'sirida ulg'ayadilar. Oila muhiti bolalarga ta'sir ko'rsatish bilan birligida uni atrofidagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa bolalarni ruhan va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazish ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi, balki, ijtimoiy burchi hamdir. Shunday ekan har bir ota-onaning burch va vazifasiga mas'uliyat bilan yondoshib, oilada har tomonlama sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish bila bir qatorda, bilimli, aql-zakovatli, udduburon, zukko, ruhan va ma'naviy barkamol insonni voyaga yetkazish, shuningdek, oila an'analar, kasb-kori, shajarasining davomiyoligini ta'minlash, farzandni bo'sh vaqtini unumli o'tkazishga erishish, giyohvandlik, maishiy nopolik, axloqsizlik, nosog'lom e'tiqod, aqidaparastlik, xoinlik kabi ba'zi bir illatlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va boshqalar kiradi.

Darhaqiqt, baxtli insonning baxtsiz insondan farqlovchi mezonlaridan ana shu bevosita oilasi bilan bog'langan niyat orzularni yurti, vatani taqdiri bilan bog'lay olishdir. Chunki, haqiqiy vatanparvar insonning shaxsiy manfaatlari oilasi yoki yurti

manfaatidan ayricha bo'lishi mumkin emas. Shuni tushungan holda har bir yurtimizning fuqarolaridan bugungi davr talabi, davlatimiz siyosatini izchil amalgamoshirishda sidqidildan yondoshishlikni taqazo etadi. Zero, bugungio'zbek oilasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bosh masala ekan, barcha ko'rileyotgan tadbirlar xususida, oilaning mustahkamlashni o'z oldimizga bosh maqsad qilib qo'yemog'imiz darkor.

Albatta, musulmon xalqlarida oila qanchalik qadrlansa, taloq yoki ajralish holatlari shunchalik tahqirlangan. Shu nuqtai nazardan musulmon olamida o'ziga xos shariyat qonunlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular asrlar osha oila-nikoh munosabatlarini tartibga solishda muhim omil bo'lgan. Shuningdek dinimizda oilani mustahkamligini saqlash va qanday holatlada mustahkam oila barpo etish haqida bir qancha hadislar bor. Masalan: Oila mustahkamligining eng asosiy muhim omillaridan biri oilaning barcha ta'minotlari erkak tomonidan bo'lishidir. Chunki arning rahbarligi to'liq bo'lishi uchun oilaning barcha sarf harajatlari er tomonidan ta'minlanishi lozim bo'ladi. Bu haqida qur'on karimda bunday deyilgan:

"Erkaklar xotinlar ustidan (oila boshtag'i sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlari (erkaklar)ni ayrimlari (ayollar)dan (ba'zi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o'z oilasiga) o'z mol-mulklaridan sarf qilib turishlaridir" (Niso surasi, 34-oyat[2]).

Musulmonchilikda oilaning buzilishi "qush inining buzilishi" kabi yomon, noxush oqibatlarni keltirib chiqaruvchi omil sifatida qaraladi. Musulmon qoidalariga ko'ra ayolning nikoh ajrimining tashabbuskori bo'lishlik qoralanadi, lekin vaziyat talab qilganda ayol o'z haq-huquqlarini talab chilmagan holad erining uyidan ketishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mamlakatimiz islohotlar va rivojlanish jarayonlarini boshidan kechirayotgan bir paytda, yosh avlodda mustahkam e'tiqodni shakllantirish davr talabidir. O'quvchi yoshlarda vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilish, vatan manfaatini o'z manfaatlaridan ustun qo'yish, vatanni qo'riqlash, yurt tabiatini va boyliklarini asrash, eng asosiysi vatanga, oilaga nisbatan chin e'tiqodni shakllantirish ota-onalar hamda tarbiyachi-pedagoglarning asosiy vazifasidir. Toki vatan muqaddas tushuncha ekan, shu vatan tuprog'i va millat sha'ni uchun jon bergen ota-bobolar, akalarning xotirasi hurmati yoshlarimizni haqiqiy vatanga e'tiqodli insonlar qilib yetishtirishning ayni vaqtidir. Mamlakatimizni rivojlantirish, dunyo miqyosiga olib chiqish bugungi yosh avlodning burchi va vazifasidir. Buyuk alloma, mutafakkirlarimizning ma'naviy merosi, xalqimizning boy og'zaki ijodi, yozma manbalari, go'zal bayramlari hamda urf-odatlari, xalq hunurmandchiligi, tarixiy obidalari yosh avlodni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash borasida benihoya qimmatli boylikdir. Bizning ilmiy izlanishimiz o'quvchilarda oilada e'tiqodni tarbiyasini shakllantirishda oilaviy qadriyatarning beqiyos ekanligini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ханкелдиева, Г. Ш. (2017). Корхоналар корпоратив бошқарувининг баҳолаш усулларини таҳлил қилиш. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали, 5.
2. Ханкелдиева, Г. Ш. (2018). Глобаллашув шароитида электроэнергетика тармоғида стратегик бошқарув усулларидан самарали фойдаланиш. Иқтисодиёт ва таълим, 5, 357-363.
3. Хонкелдиева, Г. Ш. (2018). Развитие промышленных предприятий в Республики Узбекистан. Т.: Иқтисодиёт ва таълим.
4. Ханкелдиева, Г. Ш. (2020). Пути эффективного развития инновационной деятельности производственных предприятий республики узбекистан. In Наука сегодня: теория и практика (pp. 29-32).
5. Хамракулов, И. Б. (2023). ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 398-402.
6. Хамракулов, И. Б. (2023). ЖАҲОНДА «ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ» НИНГ ЭНЕРГЕТИКА СОҲАСИГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ИНВЕСТИЦИЯЛарНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ ВА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 2361-2366.
7. Хамракулов, И. Б. (2023). НЕОБХОДИМОСТЬ И ВАЖНОСТЬ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(4), 1142-1146.
8. Bakhtiyorovich, K. I. (2023). DEVELOPMENT OF MONITORING INSTRUMENTS OF EFFICIENCY OF SMALL INDUSTRIAL ZONES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1994-1999.
9. Хамракулов, И. Б. (2022). Кичик саноат зоналарини ривожлантиришнинг моҳияти ва ўзига хос ҳусусиятлари. Scientific progress, 3(1), 328-334.
10. Хамракулов, И. Б. (2021). Кичик саноат зоналарини барпо этиш ва ривожлантиришнинг назарий асослари. Scientific progress, 2(7), 586-592.
11. Хамракулов, И. Б. (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ СТРАТЕГИК ИМКОНИЯТЛАРИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 2), 140-146.

12. Ханкельдиев, Ш. Х., & Саидахматов, А. В. (2021). Инновационные подходы к повышению уровня специальной физической подготовленности юных таэквондистов. Наука сегодня: история и современность [Текст]: материалы, 40.
13. Ханкельдиев, Ш. Х., & Султанова, Н. Я. (2021). Физическое развитие учащихся девушек среднего школьного возраста общеобразовательных школ. In НАУКА СЕГОДНЯ: ЗАДАЧИ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ (pp. 74-75).
14. Зокирова, С. Х., Хамракулов, Ж. Б., & Кадирова, Н. Б. (2020). Полевая влагоемкость, влажность почв и песков Центральный Ферганы. Universum: химия и биология, (5 (71)), 5-9.
15. Zokirova, S. X., Akbarov, R. F., Isagaliyeva, S. M., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Sand Distribution In Central Fergana. The American journal of interdisciplinary innovations and research, 3(01), 113-117.
16. Zokirova, S. X., Ahmedova, D., Akbarov, R. F., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Light Industry Enterprises In Marketing Activities Experience Of Foreign Countries In The Use Of Cluster Theory. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 36-39.
17. Бахтиёрович, Ҳ. Ж. (2022, August). ЭКОЭТИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ. In E Conference Zone (pp. 13-16).
18. Хонкелдиева, К., Рахимова, Ҳ., & Хасанхужаева, У. (2021). Предупреждение преступности среди несовершеннолетних. In Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы (pp. 34-35).
19. Xonkeldiyeva, K., & Xo'jamberdiyev, J. (2020). Экономика и социум.
20. Хайдаров, Ҳ., Нурматова, И., & Хонкелдиева, К. (2021). Факторы формирования сильного конкурентного рынка в текстильной промышленности. In НАУКА СЕГОДНЯ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ (pp. 59-61).
21. Хамракулов, И. Б. (2021). Теоретические основы создания и развития малых промышленных зон. In НАУКА СЕГОДНЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ (pp. 49-51).
22. Khamrakulov, I. (2022). Organizational and economic foundations for creating small industrial zones in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(10), 233-237.